


Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar, 2023



**KLINIK LABORATOR
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**
18 aprel 2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

WWW.SSV.UZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ

Jumayeva Z.S. Chaqaloqlar gemolitik anemiyasi laborator tahlili	259
Jumayeva Z.S. Ishqoriy fosfataza fermentini klinik laborator tekshirish .	260
Jumayeva Z.S. Ishqoriy fosfataza fermenti o‘zgarishlarini interpretatsiya qilish	262
Kasimova O.O. Parkinson's disease and innovative methods of laboratory diagnosis	263
Kasimova O.O. Early diagnostics of parkinson's disease using the rt-quic (the real-time quaking-induced conversion) system	265
Kasimova O.O. Rt-quic (real vaqtda quaking-induced conversion) tizimi foydalanishda parkinson kasalligining erta diagnostikasi	266
Kasimova S.A., Axatov Sh.Sh., Babadjanova Sh.A. Frequency of occurrence of steroid diabetes mellitus on the background of acute leukemia	266
Khakimov A.A., Soliyev Z. The results of clinical and laboratory studies in patients with disseminated pulmonary tuberculosis	268
Khushbakova G.O., Mukhiddinova F.M., Abdiraimova M.A., Abdiraimova A.N. Laboratory examination of hemoglobin	269
Kodirova M.M. Innovatsion laborator tekshirish usullari	270
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Xo‘shboqova G.O‘. Autoimmun gemolitik anemiya klinik laborator diagnostikasi	272
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Mieloid leykemoid reaksiyalarning klinik ahamiyati	275
Kurbonova Z.Ch., Xo‘shboqova G.O‘., Baltayeva F.G. Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda gematologik ko‘rsatkichlar tahlili	277
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Xo‘shboqova G.O‘. Autoimmun gemolitik anemiya etiopatogenetik aspektlari	279
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Surunkali kasalliklar anemiyasi klinik laborator diagnostikasi	280
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Eritremiya klinik laborator diagnostikasi	282
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Qon yaratish tizimi o‘sma kasalliklari etiopatogenetik aspektlari	285
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Leykositoz va uning klinik ahamiyati	287
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Limfositlar va monositlar leykemoid reaksiya klinik ahamiyati	289
Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Mielom kasalligi klinik laborator diagnostikasi	290

bosqichidan boshlanadigan hodisalar zanjiri sifatida ko'rsatish mumkin, bu yashirin davr davomida ushbu normal hujayralardan birida va ma'lum bir genda o'ziga xos mutatsiya paydo bo'ladi (yoki genlar) o'simta hujayrasining paydo bo'lishiga, uning monoklonal ko'payishiga olib keladi, bu gematopoetik katorni birida leykoz bosqichining rivojlanishini anglatadi. Keyin o'simta hujayrasida takroriy mutatsiyalar sodir bo'ladi, maxsus mutatsiyaga uchragan avtonom subklonlarning tanlanishi sodir bo'ladi, bu esa xavfli o'smaning rivojlanishiga va shakllanishiga olib keladi.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: электрон ўқув қўлланма. 2022, 146 б.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўқув қўлланма. 2023, 150 б.
4. Babadjanova Sh.A., Kurbonova Z.Ch. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.
6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 176 b.
7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik diagnostika asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.
10. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Saidov A.B. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. – 56 b.
11. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.
12. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

LEYKOSITOZ VA UNING KLINIK AHAMIYATI

Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Leykositoz muhim klinik-gematologik sindromdir. Leykositar va leykemoid reaksiya rivojlanishi kasallik kechishi va natijasiga ta'sir qiladi. Leykositoz – qonda leykositlar sonining $10 \times 10^9/l$ dan oshishi bilan xarakterlanadigan klinik laborator sindromdirdir. Leykositozning neytrofil, eozinofil, bazofil, limfositar va monositar turlari bor. Eng ko'p uchraydigan leykositoz neytrofil leykositozdir.

Neytrofil leykositoz. Funktsional neytrofil leykositoz qisqa vaqt ichida kuzatiladi va kasallik belgilari bilan bog'liq bo'lmaydi (bir necha minutdan bir necha soatgacha). Ovqatlanish, stressdan keyin kuzatiladi. **Haqiqiy neytrofil**

leykositoz uzoq vaqt neytrofil leykositlarning oshishidir (bir necha soatdan bir necha haftagacha).

Haqiqiy neytrofil leykositoz quyidagi hollarda uchraydi: bacterial etiologiyali yallig'lanish kasalliklari, og'ir ekzo va endogen intoksikatsiyalar, og'ir gemoliz, kuchli qon ketish, paraneoplastik yallig'lanish kasalliklari.

Neytrofil leykositozning degenerativ va regenerativ turlari mavjud. Degenerativ neytrofil leykositozda qonda segment yadroli va tayoqcha yadroli distrofik o'zgargan neytrofillar oshadi. Regenerativ neytrofil leykositozda segment yadroli va tayoqcha yadroli neytrofillar oshadi va mielosit,metamielositlar paydo bo'ladi (leyksitar formulaning chapga siljishi).

Eozinofil leykositoz (eozinofiliya) qonda eozinofillar sonining absolyut oshishidir. Eozinofiliya quyidagi hollarda uchraydi: allergik reaksiyalarda, gijja invaziyalari, immunopatologik kasalliklar (revmatoidli artrit, Kron kasalligi, nospesifik yarali kolit va b.), gemoblastoz va boshqa neoplaziyalar (surunkali mieloleykoz, limfogranulematoz, limfomalar va b.), o'pka eozinofil infiltratlari, bronxial astma, Kvinke angionevrotik shishi, dermatozlar, emlashdan so'ng va b.

Bazofil leykositoz (bazofiliya) qonda bazofillar sonining absolyut oshishidir. Bazofiliya quyidagi hollarda uchraydi: allergik reaksiyalar, gijja invaziyalari, immunopatologik kasalliklar(revmatoidli artrit, Kron kasalligi, nospesifik yarali kolit va b.), gemoblastoz va boshqa neoplaziyalar (surunkali mieloleykoz, limfogranulematoz, limfomalar va b.), autoimmun endokrinopatiyalar (tireoidit, miksedema), homiladorlik.

Limfositlar leykositoz (limfositoz)- qonda limfositlar sonining absolyut oshishidir. Limfositlar leykositoz quyidagi hollarda uchraydi: virusli infeksiyalar (gripp,paragripp,ko'kyo'tal,virusli gepatit,infeksion mononukleoz va b.), maxsus infeksiyalar (sil,sarkoidoz,zaxm).

Monositar leykositoz (monositoz)-monositlar absolyut sonining oshishidir. Monositoz quyidagi hollarda uchraydi: surunkali infeksiyon va yallig'lanish kasalliklari (infeksion mononukleoz, sil, brutsellyoz, zaxm, salmonellyoz, listerioz), sodda hayvonlar infeksiyasi (toksoplazmoz, amebiaz, leyshmanioz), septik endokardit, septik holat, virusli infeksiyalar, infeksiyadan tuzalish davri, malariya, immunopatologik kasalliklar (revmatoidli artrit, nospesifik yarali kolit, autoimmun tireoidit), neoplastik kasalliklar (o'tkir va surunkali leykozlar, yomon sifatli o'smalar va b.), qorin tifi, og'ir intoksikatsiyalar.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.
2. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: электрон ўқув қўлланма. 2022, 146 б.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Лаборатория иши: ўқув қўлланма. 2023, 150 б.
4. Babadjanova Sh.A., Kurbonova Z.Ch. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.
5. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

6. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 176 b.

7. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.

8. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.

9. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Sitologik diagnostika asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2022. 47 b.

10. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Saidov A.B. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2021. – 56 b.

11. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Laboratory work: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

12. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A., Sayfutdinova Z.A. Introduction to cytological diagnostics: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2023.

LIMFOSITAR VA MONOSITAR LEYKEMOID REAKSIYA

KLINIK AHAMIYATI

Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Limfositlar leykemoid reaksiya surunkali limfositlar leykozga o'xshaydi. Limfositlar leykemoid reaksiyalarning quyidagi turlari mavjud: infeksiyon limfositoz, o'tkir va surunkali limfositoz.

1. Infeksiyon limfositoz quyidagi holatlarda uchraydi: virusli infeksiyalar (gripp, paragripp, ko'kyo'tal, virusli gepatit, infeksiyon mononukleoz va b.), maxsus infeksiyalar (sil, sarkoidoz, zaxm), bakterial infeksiyalar (ko'kyo'tal, sil va b.), sodda hayvonlar invaziyasi (toksoplazmoz, bezgak).

2. O'tkir limfositoz quyidagi holatlarda uchraydi: yurak qon tomir yetishmovchiligi (o'tkir yurak yetishmovchiligi, miokard infarkti, septik shok), dori vositalar ta'sirida limfositoz, allergik reaksiyalar, katta jarrohlik amaliyotidan so'ng, epileptik tutqanoqdan so'ng, og'ir jarohatlar.

– **Surunkali limfositoz** quyidagi holatlarda uchraydi: biriktiruvchi toqima tizimli kasalliklari (revmotoidli artrit), osmalar, surunkali yalliganish kasalliklari, tamaki chekish.

Limfositlar mieloid reaksiya bilan surunkali limfoleykoz differensial diagnostikasi otkaziladi.

Monositlar leykemoid reaksiya sil, revmatizm, sarkoidoz, irsiy neytropeniya, surunkali yallig'lanish jarayonlari, Valdenstrem makroglobulinemiyasida bo'ladi. Reaktiv monositozni bir necha yillar davomida asimptomatik bo'lgan surunkali monositik leykozdan ajratish kerak. Reaktiv monositoz bilan asosiy kasallikning belgilari mavjud. Noma'lum kelib chiqadigan uzoq muddatli monositoz sternal punksiyasi, trepanobiopsiya uchun ko'rsatma hisoblanadi. Surunkali monositik leykoz holatida suyak iligining o'sma hujayrali giperplaziyasi yog' to'qimalarining deyarli to'liq siljishi bilan monositik hujayralar